



UDK: 398.4(=512.1):316.346.2

*Dilbar HAYDAROVA,*

*Tayanch doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: khaydarovadilbar96@gmail.com, ORCID ID: 0009-0006-3690-6498*

*Tarix fanlari doktori, professor G'.Boboyorov taqrizi asosida*

## THE DUAL NATURE OF THE FEMALE CHARACTER IN MYTHOLOGY AND ITS HISTORICAL AND SOCIAL FOUNDATIONS

Annotation

This article analyzes the dual nature of the female image in mythology and its historical and social foundations. The study illuminates the complex semantic nature of woman in ancient mythological thought, where she is, on the one hand, a symbol of life, fertility, motherhood, and protection, and on the other, associated with chaos, danger, and demonological forces. The historical transformation of the female image is examined through the figures of Umay, Alvasti, and female shamans in Turkic mythology. Furthermore, the functional changes of the female image within the mythological system, resulting from the shift between matriarchal and patriarchal worldviews, are investigated using comparative-mythological and structural-semiotic methods. The article scientifically substantiates the archetypal characteristics of the female image, its religious-mythological roots, and its place in the cultural consciousness of Turkic peoples.

**Keywords:** mythology, female image, dual nature, Turkic mythology, demonology, Umay, Alvasti, shaman, archetype, semantic transformation.

## ДУАЛЬНАЯ ПРИРОДА ЖЕНСКОГО ОБРАЗА В МИФОЛОГИИ И ЕЕ ИСТОРИКО-СОЦИАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ

Аннотация

В настоящей статье анализируется дуальная природа женского образа в мифологии, а также ее историко-социальные основы. В исследовании раскрывается сложная семантическая природа женщины в древнем мифологическом мышлении, которая, с одной стороны, выступает как символ жизни, плодородия, материнства и защиты, а с другой - ассоциируется с хаосом, опасностью и демонологическими силами. Историческая трансформация женского образа рассматривается на примере образов Умай, Албасты и женщины-шамана в тюркской мифологии. Кроме того, с помощью сравнительно-мифологического и структурно-семиотического методов исследуются функциональные изменения женского образа в мифологической системе, произошедшие в результате смены матриархального и патриархального мировоззрений. В статье научно обосновываются архетипические черты женского образа, его религиозно-мифологические корни и место в культурном сознании тюркских народов.

**Ключевые слова:** мифология, женский образ, дуальная природа, тюркская мифология, демонология, Умай, Албасты, шаман, архетип, семантическая трансформация.

## MIFOLOGIYADA AYOL OBRAZINING DUAL TABIATI VA UNING TARIXIY-IJTIMOY ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mifologiyada ayol obrazining dual tabiati hamda uning tarixiy-ijtimoiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda qadimgi mifologik tafakkurda ayolning bir tomondan hayot, hosildorlik, ona va himoya timsoli, ikkinchi tomondan esa kaos, xavf va demonologik kuchlar bilan bog'langan murakkab semantik tabiati yoritiladi. Turkiy mifologiyadagi Umay, Alvasti, ayol shaman obrazlari asosida ayol timsolining tarixiy transformatsiyasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, matriarxal va patriarxal dunyoqarash almashinuvi natijasida ayol obrazining mifologik tizimdagi funksional o'zgarishlari qiyosiy-mifologik hamda struktural-semiotik metodlar asosida tadqiq etiladi. Maqolada ayol obrazining arxetipik xususiyatlari, diniy-mifologik ildizlari va turkiy xalqlar madaniy tafakkuridagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** mifologiya, ayol obrazi, dual tabiat, turkiy mifologiya, demonologiya, Umay, Alvasti, shaman, arxetip, semantik transformatsiya.

**Kirish.** Insoniyat tarixining eng qadimgi davrlaridan boshlab olam tartibi ko'pincha qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi muvozanat orqali izohlanadi. Aynan shu kontekstda dualizm: ezgulik va yovuzlik, hayot va o'lim, urush va tinchlik, himoya va xavf kabi oppozitsiyalar mifologik dunyoqarashning asosiy strukturaviy tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu qarama-qarshiliklar tizimida ayol obrazi alohida o'rin egallab, u nafaqat hayot beruvchi, naslni davom ettiruvchi va himoya qiluvchi kuch, balki xavf tug'diruvchi, vayron etuvchi va liminal (lotincha *limen* - "chegara, ostona"). Ikki holat, ikki makon yoki ikki maqom orasidagi o'tish nuqtasida mavjud bo'lgan, aniq identifikatsiyaga ega bo'lmagan oraliq holat. Liminal obrazlar mifologik tizimda qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi o'tish va bog'lovchi nuqta sifatida namoyon bo'lib, ular orqali kollektiv

ongda xavf va himoya, hayot va o'lim o'rtasidagi noaniq hudud konseptualashtiriladi) xususiyatlarga ega murakkab mifologik fenomen sifatida shakllanadi.

Turkiy xalqlar mifologik tafakkurida ayol obrazining bir vaqtning o'zida ham ezgulik, ham yovuzlik bilan bog'lanishi tarixiy jarayonda shakllangan murakkab semantik hodisadir. Mazkur holatni faqat axloqiy mezonlar asosida izohlash ilmiy jihatdan yetarli emas, chunki arxaik mifologik ongda "yaxshi" va "yomon" tushunchalari hozirgi ma'nodagi qat'iy axloqiy qarama-qarshilik sifatida emas, balki kosmik tartib doirasida foydali va xavfli kuchlarning muvozanati tarzida idrok etilgan[1, 2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mifologiyada ayol obrazining semantik tabiati, genezisi hamda demonologik funksiyasi turli olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Masalan,

turk olimi B.O'gel fikricha, Albastining chillali ayollar va yangi tug'ilgan bolalar bilan bog'lanishi qadimgi tug'ilish kultlari bilan aloqador bo'lib, keyinchalik demonologik tasavvurlar ta'sirida yovuz ruh sifatida shakllangan[3]. Qozoq olimi Ch.Valixanov qirg'iz va qozoq xalqlari orasida saqlanib qolgan demonologik qarashlarni tahlil qilib, Albasti bilan bog'liq mifologik tasavvurlarni shomonistik dunyoqarash bilan bog'laydi[4]. Turk olimi M.Eliade qadimgi ona-ma'buda obrazlarining vaqt o'tishi bilan demonologik qiyofa kasb etishini arxaik diniy qarashlarning transformatsiyasi bilan bog'laydi. Mazkur nazariyalar Alvasti obrazining evolyutsiyasini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi[1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda dastlab tarixiy-tipologik metod asosida turkiy va jahon mifologiyasidagi ayol obrazlarining shakllanish bosqichlari o'rganildi. Ushbu metod orqali qadimgi ona-ma'buda kultlari, hosildorlik timsollari hamda demonologik ayol obrazlarining tarixiy ildizlari aniqlandi. Struktural-semiotik metod asosida mifologik matnlarning binar oppozitsiyalar (hayot-o'lim, himoyachi-xavf tug'diruvchi, yaxshi-yomon) tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Turkiy mifologiyaga (xususan, o'zbek va ozarbayjon) oid tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayol obrazining dual tabiati tasodifiy emas, balki uning tarixiy shakllanishi, ijtimoiy funksiyalari va semantik transformatsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Sotsiolog olim Ziya Go'kalp qadimiy turk jamoalarida jinsiy toifalanishni, turkiy oilalarning ichki tuzilmasini, ayniqsa, ayollar rolini tadqiq etgan. Z.Go'kalpning fikricha, turkiy qavmlarda qo'shxotinlik yoki ko'pxotinlik ana'nasi bo'lmagan[5]. Qadimiy turkiy jamoalarda patriarxal oila bo'lmagan. Arxaik davrda ayol ko'proq kosmogonik va hayotiylik tamoyili bilan bog'langan bo'lsa, biroq keyinchalik ijtimoiy tuzumlarining murakkablashuvi, patriarxal tizimlarning shakllanishi va diniy qarashlarning evolyutsiyasi natijasida ayol obrazining funksional va semantik maydoni sezilarli darajada o'zgaradi va keyingi bosqichlarda uning funksional maydoni kengayib, ijobiy (masalan, Umay Ona obrazi orqali ifodalangan himoyachi va barakabaxsh kuch) hamda salbiy (masalan, Alvasti yoki "Al" kategoriyasiga mansub obrazlar orqali namoyon bo'ladigan zararli va xavfli yaratilish) yo'nalishlarga ajralgan holda rivojlandi. Bu jarayon esa ayol obrazining genezisini faqatgina kelib chiqish bilan emas, balki uning tarixiy evolyutsiyasi va funksional differensiallashuvi orqali o'rganishni taqozo etadi.

Natijada, ayol obrazining mifologiyadagi o'rni nafaqat ezgulik va yovuzlik qarama-qarshiligi doirasida, balki ushbu oppozitsiyani birlashtiruvchi va muvozanatlashtiruvchi murakkab fenomen sifatida talqin etiladi. Bu esa o'z navbatida, turkiy mifologiyada ayol obrazining genezisini tizimli va konseptual asosda qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Arxaik ildizlari ezgulik kulti bilan bog'liq bo'lgan, lekin davr o'zgarishi natijasida asta-sekinlik bilan kelib chiqishi unutilib, yozuvlik kategoriyasiga mansub bo'lgan bir qancha yaratilishlar demonologik guruhga kiritilgan. Demonologik ruhlar faqat Yerosti dunyosining yovuz ruhlari emas, balki Yerusti olamidagi qo'rquv, vahima ulashuvchi, o'ldiruvchi va xiylaboz sifatlariga ega bo'lgan yaratilishlar kategoriyasi hisoblanadi[6]. Mifologiyadagi eng qadimiy yaratilishlar hisoblangan demonik ruhlar barcha turkiy xalqlar mifologiyasida uchraydi va ayrim umumiy xususiyatlarga egaligi bilan yaqqol ajralib turadi. Bunday demonologik yaratilishlar o'zbek mifologiyasida ham keng tarqalgan. Shu bilan birga bu kategoriya turkiy xalqlar miflari kesimida eng kam tadqiq etilgandir.

Turkiy xalqlar miflaridagi Ona iloha arxetipining salbiy va unga zid xususiyatlarini o'zida mujassam qilgan bir qancha obrazlar mavjud. Ular qatoriga Qora Umay, Umaji, Al

karisi, Al ruhi, Alvasti, Sariq qiz, Mortu, Kishtey Sulton, Erka Sulton kabi obrazlarni kiritish mumkin. Bunday obrazlar qachon va qay tarzda yuzaga chiqqanini bilish uchun esa tangrichilik diniga nazar solish lozim. Tangrichilik dinining asosiy rituellari shomonlar ishtirokida olib borilgan. Shomonlik ishonchiga ko'ra, ilk boshida ayol shomonlar (Shomonlik o'qish yoki ustoz-shogird tushish orqali o'rganilmaydi. Shomon ruhlar tarafidan maxsus tanlab olinuvchi va shundan keyin statusi o'zgaruvchi shaxs hisoblanadi.) bor edi[7]. Klassik shomonlik e'tiqodiga ko'ra, tanlangan ayol shomonlar ruhlar va o'ziga xos yaratilishlar mavjud, deb faraz qilingan olamda insonlarga maxsus xabarlarini yetkazuvchi muhim odamlar hisoblangan. Ular tog', suv, daraxt unsurlari va hayvonlar bilan so'zlasha olgan hamda boshqa noyob qobiliyatlarga ega bo'lgan. Ayol shomonlar orasida tabiblik, doyalik qiluvchilari ko'p topilgan. Shu bois ham turkiy qabila va jamoalarda shomonlarning o'rni g'oyat yuqori bo'lgan. Ayol shomonlar nafaqat turkiy, balki Janubiy Amerika xalqlari miflarida ham tilga olinadi. Ayol ilohalar ham qadimiy dunyoning eng mashhur va muhim sig'inuvchi kultiga aylangan. Biroq vaqt o'tishi, ovchilik takomillashishi va eng muhimi temir kashf etilishi bilan dunyo xalqlari asta-sekin patriarxal tizimdan patriarxal tizimga o'tish jarayonida ham siyosiy, ham tafakkuriy evrilishlar sodir bo'ldi. Ota boshchiligidagi tizim ayrim xalq va qabilalarda qon bilan qo'lga kiritildi. Shili xalqlari mifiga ko'ra, ayollar hukmronligiga qarshi isyon qilgan erkaklar barcha ayol-qizlarni o'ldiradi[7]. Bularning bari ayol shomonlar o'rnini erkaklar egallashi uchun ochilgan urushning bir ko'rinishi edi. Erkaklar ayollar hokimiyatiga chek qo'yish uchun tafakkur o'yinlarini ishlab chiqishdi. Ayol qiyofasidagi ezgu ruhlar va tabiat homiyari endilikda yozuv qifoyada tasavvur qilina boshlandi. Bunday o'zgarishlar vaqtlar o'tib xalq xotirasida muhrlandi va natijada ularning avval boshidagi ijobiy xarakteri unutildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tomondan jamiyatda erkakning roli ortib borishiga asosiy sabablardan biri sifatida temirchilik kulti keltiriladi. Ayol qiyofasidagi yovuz ruhlar bilan temirchilik va erkak hokimiyati o'rtasidagi bog'liqlik masalasi ham ushbu dualizmi tushunishda muhim ahamiyatga ega. Turkiy xalqlar mifologiyasida temir kosmik tartib, himoya va nazorat ramzi sifatida talqin qilinadi. Temirchi obrazi esa yaratuvchi va tartib o'rnatuvchi figura sifatida e'tirof etilgan bo'lib, bu faoliyat asosan erkaklar bilan bog'langan[8]. Shu sababli temir buyumlar demonik kuchlarga qarshi himoya vositasi sifatida keng qo'llanilgan. Aynan temirchilik kulti erkak shomonlarning maydonga chiqishi omillaridan biri bo'ldi. Fuzuli Bayat o'z kitobida shunday fikrni ilgari suradi: "Yerosti dunyosi bilan aloqa qiluvchi temirchilar sehrli kuchini erkak shomonlar bilan o'rtoqlashdi va ayol shomonlar asta-sekin kuchlarini va ahamiyatlarini yo'qotdilar[7]." Ayol shomonlar Ulgen yoki Erlikxon (ilohlar)ga xizmat qilishiga ko'ra oq shomon va qora shomon degan ikki guruhga bo'lingan[7]. Temirchilar ham xuddi shomonlar kabi oq va qora deb nomlangan guruhlariga bo'lingan. Temir mahsulotlarining keng tarqalishi, ov, urush va hatto, dehqonchilikda ham temir buyumlarga talabning oshishi bilan jamiyatda temirchilar ust pog'onaga ko'tarildi hamda ular orasidan ko'plab erkak shomonlar yetishib chiqdi. Shu tariqa ayol shomonlar soni kamayib, ular jamiyatda ikkinchi darajali insonlarga aylandi. Bir vaqtlar ijobiy obraz bo'lgan Alvasti endilikda qari, jirkanch va yovuz qiyofada xalq ongida saqlandi. Alvastining ziyonidan saqlanish uchun esa insonlar temir parchalarini uyida saqlaydigan bo'ldi. Bu esa bevosita temirchilik kulti bilan bog'lanib bugungi kunda ham O'zbekiston va Ozarbayjonning ayrim hududlarida saqlanib kelinayotgan odatlardir. Bu odatning bir ko'rinishi, yangi tug'ilgan chaqaloq beshigi tepasiga yoki bolaning bosh tomoniga temir parchasini qo'yish orqali namoyon bo'ladi.

Arxaik jamiyatlarda mifologik qarashlar inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qilgan. Ushbu qarashlarda tug'ilish, o'sish va davomiylik baraka manbai sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, ayni jarayonlar bilan bog'liq xavf va noaniqlik ham mavjud bo'lgan. Mircea Eliade ta'kidlaganidek, arxaik ongda yovuzlik mustaqil ontologik kuch emas, balki muqaddaslikning xavfli va nazorat qilinmagan holati sifatida namoyon bo'ladi[9]. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ayol obrazining ezgulik va yovuzlik bilan bog'lanishi bir-birini inkor etuvchi qarama-qarshilik emas, balki muqaddaslikning ikki xil semantik qirrasini namoyon bo'ladi.

Turkiy mifologiya materiallari ham mazkur yondashuvni tasdiqlaydi. F.Bayatning qayd etishicha, turkiy mifologik tizimda ayol obrazi avvalo hayotni davom ettiruvchi, avlodni saqlovchi va baraka beruvchi kuch sifatida shakllangan bo'lib, uning markazida onalik funksiyasi turadi[10]. Umay Ona timsoli bunga yorqin misol bo'lib, u homila va chaqaloqni himoya qiluvchi, naslning davomiyligini ta'minlovchi ilohiy kuch sifatida tasavvur etilgan. Biroq ayni paytda tug'ilish jarayoni mifologik ongda eng xavfli, hayot va o'lim chegarasiga eng yaqin holat sifatida idrok etilgan. Natijada ushbu jarayon bilan bog'liq xavf tasavvurlari ayol qiyofasidagi demonik obrazlarda mujassamlashgan.

Ilmiy tadqiqotlarda demonik mifologik obrazlarning paydo bo'lishi muqaddaslik tushunchasining keyingi inkori emas, balki uning ichki semantik qatlamlarining individuallashuvi sifatida izohlanadi. Claude Lévi-Strauss mifologik tafakkur qarama-qarshi tushunchalarni axloqiy hukm asosida emas, balki funksional muvozanat asosida tartibga solishini ko'rsatadi[2]. Shu asosda ayol obrazining demonik qiyofalari, jumladan Al va Albasti singari obrazlar, Himoyachi Ona kultining qarama-qarshisi emas, balki tug'ilish va hayot sikli bilan bog'liq xavfli holatlarning mustaqil semantik ifodasi sifatida shakllangan. Demak, demonik ayol obrazlari Himoyachi Ona va Tangri kultlaridan keyin paydo bo'lgan hodisa emas, balki ular bilan parallel ravishda rivojlangan, keyinchalik esa aniq nom va obrazga ega bo'lgan mifologik tushunchalardir.

Al obrazi hayot va o'lim, tana va ruh, tartib va kaos o'rtasidagi chegarada paydo bo'luvchi mavjudot sifatida tasavvur etiladi. Temir esa ushbu chegarani mustahkamlovchi, xaosni jilovlovchi kuch vazifasini bajaradi. Shu bois Alvastining temir buyum orqali asir qilinishi erkaklik

kuchining ayollik kuchi ustidan ustunligi sifatida emas, balki mifologik ongda kosmik tartibning tartibsizlik ustidan vaqtinchalik g'alabasi sifatida talqin qilinadi. Bu holat ayol obrazining salbiylashtirilishi emas, balki uning xavf bilan bog'liq funksiyasining nazorat ostiga olinishi bilan izohlanadi.

Patriarxal munosabatlarning shakllanishi jarayonida ayol obrazining mifologik talqinida muayyan o'zgarishlar yuz berganini ham inkor etib bo'lmaydi. Ijtimoiy tuzilmaning o'zgarishi natijasida ayol obrazi bir tomondan ona va homiy sifatida ideallashtirilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan nazorat qilinishi lozim bo'lgan xavfli kuch sifatida demonologik obrazlarda mustahkamlangan. Biroq bu holatni ayollarning ongli ravishda salbiylashtirilishi sifatida emas, balki jamiyatdagi hokimiyat munosabatlari va ijtimoiy rollarning o'zgarishi natijasida mifologik tasavvurlarning semantik qayta kodlanishi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir[11].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, turkiy mifologiyada ayol obrazining ezgulik va yovuzlik bilan bog'lanishi qarama-qarshi axloqiy baholar mahsuli emas, balki hayot siklining murakkab va ko'p qatlamli mifologik ifodasidir. Ayol obrazi bu tizimda nafaqat hayotni yaratuvchi, balki uni xavf ostiga qo'yuvchi kuch sifatida ham namoyon bo'lib, kosmik muvozanatni ta'minlovchi markaziy figura vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, turkiy mifologik tafakkurda ayol obrazining ezgulik va yovuzlik bilan bog'lanishi axloqiy qarama-qarshilik natijasi emas, balki hayot siklining murakkab va ko'p qatlamli semantik ifodasidir. Arxaik mifologik ongda "yaxshi" va "yomon" tushunchalari kosmik tartib doirasida foydali va xavfli kuchlarning muvozanati sifatida idrok etilgan bo'lib, ayol obrazi aynan shu muvozanatni ta'minlovchi markaziy figura sifatida shakllangan. Himoyachi Ona kulti va demonik ayol obrazlari bir-birini inkor etuvchi hodisalar emas, balki tug'ilish, o'sish va davomiylik bilan bog'liq jarayonlarning muqaddas hamda xavfli qirralarini ifodalovchi parallel semantik qatlamlar sifatida rivojlangan. Temirchilik va patriarxal munosabatlarning shakllanishi jarayonida ayol obrazining mifologik talqinida muayyan o'zgarishlar yuz bergan bo'lib, mifologik tasavvurlarning ijtimoiy-madaniy sharoitlarga mos ravishda qayta kodlanishiga sabab bo'lgan. Natijada ayol obrazi turkiy mifologiyada hayotni yaratuvchi va uni xavf ostiga qo'yuvchi kuchlarni o'zida mujassamlashtirgan holda kosmik muvozanatni ta'minlovchi muhim mifologik figura sifatida namoyon bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Eliade M. *The Sacred and the Profane: The Nature of Religion*. – New York: Harcourt, Brace & World, 1957. – P. 20–45.
2. Lévi-Strauss C. *Structural Anthropology*. – New York: Basic Books, 1963. – P. 206–231.
3. Ögel B. *Türk mitolojisi*. 1-cilt. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1993. – B. 465–472; 501–506.
4. Валиханов Ч.Ч. Следы шаманства у киргизов // *Собрание сочинений*. – Алма-Ата: Наука, 1985. – Т. 4. – С. 47–48.
5. Gökalp Z. *Türkçülüğün esasları*. – İstanbul: Varlık Yayınları, 1976. – B. 157–165.
6. Bayat F. *Türk mifoloji sistemi*. II cilt. – Bakı, 2007. – S. 273.
7. Bayat F. *Kadın shaman*. – İstanbul, 2023. – S. 11.
8. Bayat F. *Türk Mitolojik Sistemi*. II Cilt: *Mitolojik Kategoriler*. – İstanbul: Ötüken Neşriyat, 2007. – S. 201–245.
9. Eliade M. *Myth and Reality*. – New York: Harper & Row Publishers, 1959. – P. 18–39.
10. Bayat F. *Türk Mitolojik Sistemi*. I Cilt: *Ontolojik ve Epistemolojik Bağlam*. – İstanbul: Ötüken Neşriyat, 2007. – S. 112–158.
11. Bachofen J.J. *Das Mutterrecht: Eine Untersuchung über die Gynaiokratie der alten Welt*. – Stuttgart: Benno Schwabe Verlag, 1861. – S. 85–130.